11. A.S.Ganiyev, H.N.Baxronov, I.O.Jumaniyozov. Fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. “Elektromagnetizm” 3-qism. 2020 y
12. Холмедов Х.М., Ибрагимов Б., Каримов Х.Н. Методическое пособие к практическим занятиям по физике. Часть I. Механика. Ташкент, 2020 г.
13. Ганиев А.С., Жуманиёзов И.О., Бахронов Х. Методическое пособие к практическим занятиям по физике. Часть III. Электростатика. Электромагнетизм. Ташкент, 2020 г.
14. Virtual laboratoriya islarini bajarish uchun uslubiy qo‘llanma. Abdurahmanov Q.,Hamidov V., Holmedov H. 124 b. Aloqachi 2009 y.
15. Виртуальный лабораторный практикум. Абдурахманов К.П., Харитонова Н.Ф. , Хамидов В.С. “Aloqachi”, 2009 г.
16. Холмедов Х., Каримов Х.Н., Абдуллаева Ш. Методическое пособие к практическим занятиям по физике. Часть II. Молекулярная физика и термодинамика. Ташкент, 2021.
17. Xolmedov H.M., Karimov X.N., Abdullayeva Sh., Xalilov S. Mexanika. Molekulyar fizika va termodinamika. Fizika fanidan laboratoriya ishlari uchun uslubiy qo‘llanma. 1-qism. 2021y.
18. Холмедов Х., Каримов Х.Н. , Абдуллаева Ш., Халилов С. Лабораторный практикум по физике. Механика и молекулярная физика. Часть 1. Ташкент, 2021.
19. Ahmadjonov O. Fizika kursi. T.: «O‘qituvchi», 1987. t. 1,2,3- qismlar
20. М.Исмоилов.,П. Хабибуллаев., М.Г. Халиулин. Физика курси. Механика, электр, электромагнетизм. Т. : Ўзбекистон, 2000
21. М.Исмоилов., М.Г. Халиулин. Элементар физика масалалари. Т.: Ўқитувчи, 1993.
22. N.A. Sultanov. Fizika kursi. Darslik. T.: Fan va texnologiya. 2007. 305 bet.
23. В.С.Волькенштейн. Сборник задач по общему курсу вопросов и физики.- М.:Наука.
24. E.N.Rasulov, U.Sh.Begimqulov. Kvant fizikasi. -T. :Fan va Texnologiya, 2009
25. Ш.З.Таджибаев. Физика асослари. Дарслик. Тошкент. Фан ва технология, 2011.
26. B.Orifjonov. «Elektromagnetizm» o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2011.
27. А.А.Детлаф, Б.М.Яворский. Курс физики. М. Изд. центр. «Академия», 2008.
28. И.В.Савельев. Курс общей физики. Электричество и магнетизм. Волны. Оптика: учеб. пособие для студ. вузов.М. 2009.

Scanned with CamScanner

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y.
2. Sh.M.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonliginining garovi. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y
3. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratikm O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y.
4. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag`ishlangan majlisidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so`zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.
5. James E.The Ernst.Young resource guide to global markets.-New york: John.sons,Inc.,1991.
6. B.A.Fayzullayev. Nazariy fizikaning matematik usullari. Toshkent. Barkamol fayz mediya, 2016ю
7. B.A.Fayzullayev. Nazariy mexanika. Cho‘lpon nom. Nashr-matbaa ijodiy uyi. 2011.
8. В.И.Савельев. Квантовая оптика.Атомная физика.Физика твердого тела.Физика атомного ядра и элементарных частиц-М.: КНОКУРС, 2009.
9. В.И.Савельев. Сборник вопросов и задач -М.: КНОКУРС,2009.
10. В.И.Савельев. Механика.Молекулярная физика и термодинамика-М.: КНОКУРС,2009.
11. R.X. Musayev. Statistika fizika va termodinamika. Darslik. T.: 2008. 256 b.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz
2. www.my.estudy.uz
3. www.fizika.uz
4. www.learning.zn.uz
5. https://edx.org
6. https://coursera.org
7. https://www.khanacademy.org
8. https://phet.colorado.edu

Scanned with CamScanner

7.	**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**
8.	**Fan uchun mas'ullar:** Xolmedov X.M. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, "Fizika" kafedrasi mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi; Abduraxmanov Q.P. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, "Fizika" kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori, professor.
9.	**Taqrizchilar;** Umarov A.M. – Toshkent amaliy fanlar universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor; Gaibov A.G. - Toshkent davlat texnika universiteti, "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi.

Scanned with CamScanner

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ

“**ТАСДИҚЛАЙМАН**”
ТАТУ ректори

_____Т.Тешабаев

202__йил “___” _____

“КЕЛИШИЛДИ”
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги
_____
2020 йил 29 Август
Рўйхатга олинди: № БД –5130100 –2.02
2020 йил 29 Август

ЧИЗИҚЛИ АЛГЕБРА
ФАН ДАСТУРИ

Билим соҳалари: 200 000 – Ижтимоий соҳа, иқтисод ва ҳуқуқ.
300 000 – Ишлаб чиқариш – техник соҳа.

Таълим соҳалари: 230 000 – Иқтисод.
330 000 – Компьютер технологиялари ва информатика, телекоммуникация технологиялари.
350 000 – Алоқа ва ахборотлаштириш, телекоммуникация технологиялари.

Таълим йўналишлари: 5232800 – Электрон тижорат;
5234100 – Рақамли иқтисодиёт;
5330500 – Компьютер инжиниринги (“Компьютер инжиниринги”, “АТ-сервис”, “Мультимедиа технологиялари”);
5330300 – Ахборот хавфсизлиги;
5330600 – Дастурий инжиниринг;
5350100 – Телекоммуникация технологиялари (“Телекоммуникациялар”, “Телерадиоэшиттириш”, Мобиль тизимлари);
5350200 – Телевизион технологиялар (“Аудиовизуал технологиялар”, “Телестудия тизимлари ва иловалари”);
5350300 – Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида иқтисодиёт ва менежмент;
5350400 – Ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида касб таълими;
5350600 – Кутубхона-ахборот фаолияти.

Тошкент 2020

Фан/модул коди MTH1234 (бакалавриат)	**Ўқув йили** 2020-2021	**Семестр** 2	**ECTC-Кредитлар** 4
Фан/модул тури мажбурий	**Таълим тили** Ўзбек/Рус		**Ҳафтадаги дарс соатлари** 4

1.	**Фаннинг номи**	**Аудитория машғулотлари** (соат)	**Мустақил таълим** (соат)	**Жами юклама** (соат)
	Чизиқли алгебра	60	60	120

2. **I.Фаннинг мазмуни**

Фанни ўқитишдан мақсад:

– талабалар иқтидорини ўстириш, мантиқий ва алгоритмик фикрлаш қобилиятини шакллантириш; ахборотлар билан боғлиқ жараёнларни таҳлил қилиш ва математик моделлаштириш учун зарур бўлган математик усулларни ўқитиш; ахборотлар ва технологиялар соҳасидаги турли йўналишдаги масалаларнинг асосли ва оптимал (энг мақбул) ечимларини топишда **“Чизиқли алгебра”** фанининг ўрни ва аҳамиятини кўрсатиш;

– ўтилган мавзуларни мустақил ривожлантириш, тўғри ечимларини топиш, турли ахборот манбалари (адабиёт ва интернет)дан фойдаланиш, кўникма ва қобилиятларини шакллантириш ҳамда уларни амалда татбиқ этиш кўникмасини ҳосил қилиш.

Фаннг вазифаси:

- умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими билан узвийлик ва узлуксизликни таъминлаш;
- талабаларга умумилмий, муҳандислик ва махсус фанларни ўзлаштириш ҳамда чизиқли алгебра усулларни муҳандислик ишларига татбиқ қилишни ўргатиш;
- назарий ва амалий масалаларини еча олишга етарли бўлган математик аппаратни эгаллашга ва уни қўллашга, шунингдек, муҳандислик масалаларининг математик моделини тузиш ҳамда уларни таҳлил қилишга ўргатиш;
- мантиқий, алгоритмик, абстракт фикрлашни, математик тафаккурни ривожлантириш, ўзининг фикр-мулоҳаза, хулосаларини асосли тарзда аниқ баён этишга ўргатиш ҳамда эгалланган билимлари бўйича, кўникма ва малакаларни шакллантириш;

- ахборотни олиш, сақлаш, қайта ишлаш ва узатишнинг асосий усуллари ва воситаларидан фойдаланишни эгаллаган бўлиши;
- экологик дунёқараш шаклланган бўлиши, экологиянинг консептуал асосларини билишини ўргатишдан иборат.

II. Асосий назарий қисм (маъруза машғулотлари)

II.I.Фан таркибига қуйидаги мавзулар киради:

1-мавзу. Матрицалар назарияси элементлари.

Асосий таъриф ва тушунчалар. Матрицаларнинг турлари. Матрицаларни сонга кўпайтириш, матрицаларни қўшиш, матрицаларни айириш ва матрицани матрицага кўпайтириш амаллари, ҳамда уларнинг хоссалари.

2-мавзу. Детерминантлар назарияси.

Иккинчи ва учинчи тартибли детерминантлар ва уларни ҳисоблаш усуллари. Ўрин алмаштиришлар. n - тартибли детерминантнинг таърифи.

3-мавзу. Детерминантнинг хоссалари.

Детерминантнинг асосий хоссалари. Минор ва алгебраик тўлдирувчи тушунчалари. Лаплас теоремаси.

4-мавзу. Матрица ранги. Матрица рангини ҳисоблаш усуллари.

Матрица рангининг таърифи. Матрица рангини ҳисоблашнинг минорлар усули. Эквивалент алмаштиришлар ёрдамида матрица рангини ҳисоблаш.

5-мавзу. Тескари матрица. Тескари матрицани ҳисоблаш усуллари.

Тескари матрица таърифи. Хос ва хосмас матрицалар. Тескари матрица мавжудлигининг зарурий ва етарли шарти. Эквивалент алмаштиришлар ёрдамида тескари матрицани ҳисоблаш.

6-мавзу. Чизиқли алгебраик тенгламалар системаси ва уларни ечиш усуллари.

Чизиқли алгебраик тенгламалар системаси ва унинг ечими. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасининг ечими мавжудлигининг зарурий ва етарли шарти (Кронекер-Капелли теоремаси). Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишнинг Крамер усули.

7-мавзу. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишнинг матрица, Гаусс ва Гаусс-Жордан усуллари.

Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишнинг матрица усули. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишнинг Гаусс ва Гаусс-Жордан усуллари.

8-мавзу. Бир жинсли чизиқли алгебраик тенгламалар системаси.

Бир жинсли чизиқли алгебраик тенгламалар системасининг нотривиал ечими мавжудлик шарти. Бир жинсли чизиқли алгебраик тенгламалар системасининг фундаментал ечимлари системаси. Бир жинсли ва бир жинсли бўлмаган чизиқли алгебраик тенгламалар системалари ечимлари орасидаги боғланиш.

9-мавзу. Векторлар назарияси элементлари.

Текисликда ва фазода вектор тушунчалари. Векторнинг матрицавий кўриниши. Векторлар устида арифметик амаллар-векторни сонга кўпайтириш, ҳамда векторларни қўшиш ва айириш. Векторларнинг скаляр, вектор ва аралаш кўпайтмалари, ҳамда бу кўпайтмаларни детерминантлар ёрдамида ҳисоблаш. Коши-Буняковский тенгсизлиги.

10-мавзу. Арифметик вектор фазо ва унга мисоллар.

n ўлчовли векторлар ва улар устида арифметик амаллар. n ўлчовли векторлар системасининг ранги ва базиси. n ўлчовли арифметик вектор фазо ва унга мисоллар.

11-мавзу. Чизиқли фазо. Евклид фазоси.

Чизиқли фазонинг таърифи ва мисоллар. Чизиқли фазонинг ўлчови ва базиси. Чизиқли фазо элементини базис бўйича ёйиш. Чизиқли фазонинг қисм фазолари. Евклид фазосининг таърифи. Евклид фазосида элементнинг нормаси тушунчаси. Евклид фазосида ортонормалланган базис қуриш.

12-мавзу. Чизиқли операторлар ва уларнинг хоссалари.

Чизиқли операторнинг таърифи ва мисоллар. Чизиқли операторнинг матрицаси. Чизиқли операторлар устида арифметик амаллар. Чизиқли операторлар фазоси. Чизиқли операторларнинг ўтиш матрицаси. Чизиқли операторнинг хос сон ва хос векторлари.

13-мавзу. Хос векторлари базис ташкил қилувчи чизиқли операторлар.

Чизиқли операторнинг хос сон ва хос векторлари. Хос векторлари базис ташкил қилувчи чизиқли операторлар. Чизиқли операторнинг хос векторлари базис ташкил қилишининг етарли шарти.

14-мавзу. Квадратик форма ва уни каноник кўринишга келтириш.

Квадратик форманинг таърифи. Квадратик форманинг каноник кўриниши. Квадратик формани каноник кўринишга келтириш.

15-мавзу. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини тақрибий ечиш усуллари.

Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини тақрибий ечишнинг оддий итератция ва Зейдел усуллари. Итератцион жараён яқинлашишининг зарурий ва етарли шартлари.

III. Амалий машғулотлар бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Амалий машғулотлар учун қуйидаги мавзулар тавсия этилади:

1. Матрицаларнинг турлари. Матрицаларни сонга кўпайтириш, матрицаларни қўшиш, матрицаларни айириш ва матрицани матрицага кўпайтириш амаллари, ҳамда уларнинг хоссалари.

2. Иккинчи ва учинчи тартибли детерминантлар ва уларни ҳисоблаш. Ўрин алмаштиришлар. n – тартибли детерминантнинг таърифи.

3. Детерминантнинг асосий хоссалари. Минор ва алгебраик тўлдирувчи тушунчалари. Лаплас теоремаси.

4. Матрица рангининг таърифи. Матрица рангини ҳисоблашнинг минорлар усули. Эквивалент алмаштиришлар ёрдамида матрица рангини ҳисоблаш.

5. Тескари матрица таърифи. Хос ва хосмас матрицалар. Тескари матрица мавжудлигининг зарурий ва етарли шарти. Эквивалент алмаштиришлар ёрдамида тескари матрицани ҳисоблаш.

6. Чизиқли алгебраик тенгламалар системаси ва унинг ечими. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасининг ечими мавжудлигининг

	зарурий ва етарли шарти (Кронекер-Капелли теоремаси). Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишнинг Крамер усули. **7.** Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишнинг матрица усули. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишнинг Гаусс ва Гаусс-Жордан усуллари. **8.** Бир жинсли чизиқли алгебраик тенгламалар системасининг нотривиал ечими мавжудлик шарти. Бир жинсли чизиқли алгебраик тенгламалар системасининг фундаментал ечимлари системаси. Бир жинсли ва бир жинсли бўлмаган чизиқли алгебраик тенгламалар системалари ечимлари орасидаги боғланиш. **9.** Текисликда ва фазода вектор тушунчалари. Векторнинг матрицавий кўриниши. Векторлар устида арифметик амаллар-векторни сонга кўпайтириш, ҳамда векторларни қўшиш ва айириш. Векторларнинг скаляр, вектор ва аралаш кўпайтмалари, ҳамда бу кўпайтмаларни детерминантлар ёрдамида ҳисоблаш. Коши-Буняковский тенгсизлиги. **10.** n ўлчовли векторлар ва улар устида арифметик амаллар. n ўлчовли векторлар системасининг ранги ва базиси. n ўлчовли арифметик вектор фазо ва унга мисоллар. **11.** Чизиқли фазонинг таърифи ва мисоллар. Чизиқли фазонинг ўлчови ва базиси. Чизиқли фазо элементини базис бўйича ёйиш. Чизиқли фазонинг қисм фазолари. Евклид фазосининг таърифи. Евклид фазосида элементнинг нормаси тушунчаси. Евклид фазосида ортонормалланган базис қуриш. **12.** Чизиқли операторнинг таърифи ва мисоллар. Чизиқли операторнинг матрицаси. Чизиқли операторлар устида арифметик амаллар. Чизиқли операторлар фазоси. Чизиқли операторларнинг ўтиш матрицаси. Чизиқли операторнинг хос сон ва хос векторлари. **13.** Чизиқли операторнинг хос сон ва хос векторлари. Хос векторлари базис ташкил қилувчи чизиқли операторлар. Чизиқли операторнинг хос векторлари базис ташкил қилишининг етарли шарти. **14.** Квадратик форманинг таърифи. Квадратик форманинг каноник кўриниши. Квадратик формани каноник кўринишга келтириш. **15.** Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини тақрибий ечишнинг

	оддий итерация ва Зейдел усуллари. Итерацион жараён яқинлашишининг зарурий ва етарли шартлари. **16.** Амалий машғулотларда талабалар **“Чизиқли алгебра”** фанидан олган назарий билимларини мустаҳкамлайдилар. Амалий машғулотларда ечиладиган мисол ва масалалар қуйидаги принципларга асосан танланади: типик мисол ва масалаларни ечишга малака ҳосил қилдирувчи, фаннинг моҳиятини англатувчи ва мавзулар орасидаги боғлиқликни ифодаловчи маълум миқдордаги мисол ва масалалар танланади. **IV. Мустақил таълим ва мустақил ишлар** Талаба мустақил ишининг асосий мақсади ўқитувчининг раҳбарлиги ва назоратида муайян ўқув ишларини мустақил равишда бажариш учун билим ва кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантиришдир. ***Талаба мустақил ишини ташкил этишда қуйидаги шакллардан фойдаланади:*** • айрим назарий мавзуларни ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштириш; • берилган мавзулар бўйича ахборот (реферат) тайёрлаш; • назарий билимларни амалиётда қўллаш; • макет, модел ва намуналар яратиш; • илмий мақола, анжуманларда маъруза тайёрлаш ва ҳоказо. ***Мустақил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар:*** 1. Матрицаларни *LU* ва *LDU* кўпайтмаларга ёйиш ва уларнинг татбиқлари. 2. Евклид фазолари. Евклид фазосида ортонормал базис қуриш. 3. Чизиқли операторларни берилган базисда ифодалаш. Чизиқли операторларнинг турли базислардаги матрицалари орасидаги боғланиш. Ўтиш матрицалари. 4. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини тақрибий ечиш усуллари ва уларни компьютерда бажариш.
3.	**V. Фан ўқитилишининг натижалари (шаклланадиган компетенсиялар).**

	Фанни ўзлаштириш натижасида талаба: • амалий масалаларда математик текширишнинг бошланғич кўникмасини ишлаб чиқиш (ҳаётий масалаларнинг математик моделини қуриш, уни текшириш ва ечишнинг қулай усулини танлаш, олинган натижаларни баҳолаш, қўллаш ва ҳоказолар); • мавжуд математик пакетлар ёки ахборот технологияларидан фойдалана олиш; • мавзуга доир мисол ва масалаларни ечишга мос қулай усулни топа олиш; • математик масалаларни ечиш усулларини мукаммал ўзлаштириб, ечимларни амалиётда қўлланиш кўринишигача етказиш(формула, сон, график ва ҳоказо) ва натижада логик ва алгоритмик фикрлаш қобилиятига эга бўлиши керак; • талаба мутахассислиги билан боғлиқ адабиётларда учрайдиган математик аппарат тушунчаларини мустақил таҳлил қила олиши, шунингдек, "**Чизиқли алгебра**" фанидан олинган билимларни мутахассислиги билан боғлай олиши керак; • ўз фикр-мулоҳаза ва хулосаларини асосли тарзда аниқ баён эта олиш малакаларига эга бўлиши керак.
4.	**ВИ. Таълим технологиялари ва методлари:** • маърузалар; • интефаол кейс-стадилар; • семинарлар (мантиқий фикрлаш, тезкор савол-жавоблар); • кичик гуруҳларда ишлаш; • тақдимотларни қилиш; • индивидуал лойиҳалар; • жамоа бўлиб ишлаш ва ҳимоя қилиш учун лойиҳалар тайёрлаш; • ақлий ҳужум ва бошқалар.
5.	**VII. Кредитларни олиш учун талаблар:** Фанга оид назарий ва амалий тушунчаларни тўла ўзлаштириш, таҳлил натижаларини тўғри акс эттира олиш,

	ўрганилаётган жараёнлар ҳақида мустақил мушоҳада юритиш, тавсия этилган мустақил таълим мавзуларни ўз муддатида сифатли тайёрлаш(ҳимоя қилиш), жорий, оралиқ назорат шаклида берилган вазифа ва топшириқларни бажариш, якуний назорат бўйича ёзма ишни топшириш.
6.	**Асосий адабиётлар:** 1. Gilbert Strang “Introduction to Linear Algebra”, USA, Cambridge press, 5^{nd} Edition, 2016. 2. Grewal B.S. “Higher Engineering Mathematics”, Delhi, Khanna publishers, 42^{nd} Edition, 2012. 3. Raxmatov R.R., Adizov A.A., Tadjibaeva Sh.E., Shoyimardonov S.K. Chiziqli algebra va analitik geometriya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2020. 4. Raxmatov R.R., Adizov A.A. “Chiziqli fazo va chiziqli operatorlar” O‘quv uslubiy qo‘llanma. TATU, Toshkent 2019. 5. Соатов Ё.У. “Олий математика”, Т., Ўқитувчи нашриёти, 1- 5 қисмлар, 1995. 6. Рябушко А.П. и др. “Сборник индивидуалных заданий по высшей математике”, Минск, Высшая школа, 1-3 частях, 1991. **Қўшимча адабиётлар:** 7. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017. - 488 бет. 8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 9. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017. 10. Adizov A.A., Xudoyberganov M.O‘. Amaliy matematika. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2014. 11. Шодиев Т.Ш. Аналитик геометрия ва чизиқли алгебра. Тошкент “Ўқитувчи” 1984. 12. Илин В. А., Позняк Э. Г. Линейная алгебра. — 6-е изд., стер. — М.: ФИЗМАТЛИТ, 2004. 13. Задорожный В. Н. и др. Высшая математика для технических университетов. Част И. Линейная алгебра. - Томск: Изд-во ТПУ,

	2009. 14. Данко П.С., Попов А.Г., Кожевникова Т.Я. Высшая математика в упражнениях и задачах. Седмое издание. -М.: Высшая; школа, 2015. 15. Семёнова Т.В. Высшая математика: учебное пособие для студентов технических вузов. Част 1. - Пенза: Пензенский гос. ун-т, 2008. 16. Макаров Е. В., Лунгу К. Н. Высшая математика: руководство к решению задач: учебное пособие, Част 1, Физматлит. 2013. 17. Минорский В.И. Сборник задач по высшей математике. М: Наука, 1987. 18. Беклемешев Д.В., Петрович А.Ю., Чуберов И.А. Сборник задач по аналитической геометрии и линейной алгебре. -М.: Наука, 1987. 19. Бугров Я.С., Николский С.М. Сборник задач по высшей математике, - М.: Наука. 1997. **Интернет сайтлари** 1. www.my.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси хукумат портали. 2. www.lex.uz– Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 3. www.Ziyo net.uz 4. www.my.tuit.uz 5. www.Math.uz 6. www.bilim.uz 7. www.ocw.mit.edu
7.	Фан дастури Олий ва профессионал таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 202__ йил “___”_____ даги ____ -сонли баённомаси билан маъқулланган. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 202__ йил “___” _____даги _____ - сонли буйруғи билан маъқулланган фан дастурларини таянч олий таълим муассасаси томонидан тасдиқлашга розилик берилган. Фан дастури Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университетида ишлаб чиқилди.
8.	**Фан/модул учун масъуллар:** 1.Кафедра мудири Рахматов Р., 2.Кафедра доценти Адизов А.А.,

	3.Кафедра доценти Чай З.С.
9.	**Тақризчилар:** **Худойбердиев А.Х.** – Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Алгебра ва функционал анализ” кафедраси профессори, ф.-м.ф.д.; **Абдуллаев Р.З.**– ТАТУ “Олий математика” профессори, ф.-м.ф.д.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor
_____ B.Maxkamov
“25” 08 2022 y.

N 68
25.08.2022 y.

DASTURLASH I
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300 000	Ishlab chiqarish –texnik soha
	400 000	Biznes, boshqaruv va huquq
	600 000	Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari
	700 000	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim sohasi:	310 000	Ijtimoiy va xulq atvorga oid fanlar
	320 000	Jurnalistika va axborot
	410 000	Biznes va boshqaruv
	610 000	Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari
	710 000	Muhandislik ishi
Ta’lim yo‘nalishlar	60310500 –	Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
	60320400 –	Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)
	60412800 –	Elektron tijorat
	60610300 –	Axborot xavfsizligi(soxalar bo‘yicha)
	60610500 –	Kompyuter injiniringi (Kompyuter injiniringi, AT-servisi, Multimedia texnologiyalari)
	60610600 –	Dasturiy injiniringi
	60610700 –	Sun’iy intellekt
	60611000 –	Telekommunikatsiya texnologiyalari (Telekommunikatsiya texnologiyalari, Teleradioeshittirish, mobil tizimlar)
	60611100 –	Televizion texnologiyalar (Audiovizual texnologiyalari, Telestudiya tizimlari va ilovalari)
	60611200 –	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment
	60611300 –	Axborot –kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’limi
	60611400 –	Pochta aloqa texnologiyasi
	60612000 –	Infokommunikatsiya injiniringi
	60612100 –	Kiber xavfsizligi injiniringi
	60711500 –	Mexatronika va robototexnika

Toshkent – 2022

Fan/modul kodi	Oquv yili 2022-2023	Semestr 1	ECTS-kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim turi: O'zbek		Xaftadagi dars soatlari	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil talim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Dasturlash 1	74 Jumladan: Ma'ruza -30 Amaliyot - 44	106	180

2.

I. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlash, uzatishning asosiy tamoyillarini C++ dasturlash tili orqali o'rganish. Shuningdek, zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va ularni yaratish usul va texnologiyalarini o'rganish. Turli texnik bilimlarga oid masalalarni zamonaviy dasturlash tillari yordamida hal etish va ularning usullarini o'rganishdan iborat.

Dasturlash I fanining mohiyati, uning asosiy tamoyillari, vazifalari talabalarni algoritmik bilimlarni rivojlantirishdir. Bunga erishishda zamonaviy dasturlash tili (C++) imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Fanning vazifasi – uni o'rganuvchilariga:

- dasturlash tillarining qo'llanilish sohalarini;
- dastur tuzilishi va alifbosini;
- o'zgarmas va o'zgaruvchilar, ma'lumot tiplarini qo'llanilish usullarini;
- matematik va mantiqiy amallarning qo'llanilish usullarini;
- kiritish – chiqarish operatorlarini qo'llanilish usullarini;
- tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlar uchun algoritmlar hamda dasturlar tuzishni;
- funksiya va kutubxonalarni yaratishni hamda ulardan foydalanishni;
- massivlar, belgilar va satrlar bilan ishlashni;
- ma'lumotlarning statik tuzilmasi va dinamik tuzilmasi bilan ishlashni;
- dasturlashning grafik imkoniyatlarini;
- fayllar bilash ishlashni;
- sinf, ob'ektga mo'ljallangan dasturlash imkoniyatlarini turli xil sohalarga qo'llash usullarni;
- vizual dasturlash elementlari bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlik asosida o'rgatishdan iborat.

Bundan tashqari, bo'lajak mutaxassislarda amaliy masalalarni va informatsion modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalarni ham o'rganiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. Dasturlashga kirish, dasturlashning asosiy tushunchalari

Tilning bazaviy tushunchalari (til alifbosi, identifikator va leksemlar, kalit so'zlar, konstanta satrlar, ma'lumotlar toifasi, arifmetik ifoda va amallar, siljitish amallari, inkrement, dekrement, bitlarga ishlov beruvchi operatorlar, ma'lumotlar toifasini o'zgartirish, kutubxona funksiyalari). Preprotsessor direktivalari va vositalari.

2-mavzu. Dasturlash tillarining tuzilmasi

Dastur tarkibi. Konsoldan kiritish va chiqarish. Simvollarni o'qish va yozish. Konsoldan formatli kiritish va chiqarish. Format modifikatorlari. printf(), scanf() funksiyalari. Format spesifikatorlari. Sonlarni kiritish. Adreslarni kiritish.

3-mavzu. Tarmoqlanish va uzilishlarni tashkil etish operatorlari

Shartli operator. To'liq va qisqa tarmoqlanish (if). Tanlash operatori (switch- case va default konstruksiyalari). Ternar operatori. Shartsiz o'tish operatorlari. Uzilishni tashkil etish- break, continue.

4-mavzu. Takrorlanish operatorlari

Parametrli takrorlash operatori (for). Old shartli va so'ng shartli takrorlanuvchi sikl operatorlari (while, do while). Takomillashtirilgan takrorlash operatorlari. Takrorlanishni tarmoqlanish va shartsiz o'tish orqali tashkil etish.

5-mavzu. Funksiyalar

Funksiya tavsifi. Qiymatlarni qaytarish. Funksiya prototiplari. Parametrlarni qiymat va adresga ko'ra jo'natish. Havolalar. Qiymat berish parametrlari. Funksiyalar parametr sifatida. Rekursiv funksiyalar. Funksiyalarni qayta yuklash. Foydalanuvchi kutubxonasini tashkil etish.

6-mavzu. Ko'rsatkichlar va dinamik xotira bilan ishlash

Ko'rkatkichlar. Dinamik xotira bilan ishlash.

7-mavzu. Massivlar

Massiv tushunchasi. Massiv elementlariga qiymat kiritish va chiqarish usullari. Statik massivlar. Massiv elementlarini saralash va qidirish usullari.

8- mavzu. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash asoslari

Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash asoslari (inkapsulyatsiya, vorislik, polimorfizm, sinflar va ob'ektlar). Tuzilmalar va birlashmalar.

9- mavzu. Konstruktorlar va destruktorlar

Konstruktorlar va destruktorlar. Friend funksiyalar va sinflar, ko'rsatkichlar va sinf metodlari. Ob'ektlar massivi. Dinamik ob'ektlarni boshqarish.

10- mavzu. Satrlar va kengaytirilgan belgilar

Satrlarga ishlov berish standart funksiyalari - satrlarni ulash, solishtirish, belgilarni izlash, satr qismlarini izlash, o'zgartirish va o'chirish. 16-bitli belgilarni boshqarish funksiyalari.

11- mavzu. Fayllar va fayllar bilan ishlash

Fayllar va oqimlar, diskdagi fayllar bilan ishlash. Fayllar almashinuvi uchun binar rejim. Matnli fayllar. Binar fayllar. C++ tilining fayllar bilan ishlash funksiyalari. Istisno (exception) larni qayta ishlash (throw, try i catch).

12- mavzu. Inkapsulyatsiya va meros'ho'rlik

Inkapsulyatsiya. Merosxo'rlik va uning turlari. Himoyalangan merosho'rlik. Bazaviy sinf a'zolariga murojatni boshqarish.

13- mavzu. Polimorfizm.

Polimorfizm va uning turlari. Virtual funksiya. Abstrakt sinf va funksiyalar.

14- mavzu. Operatorlarni qayta yuklash.

Operatorlarni qayta yuklash. nusxa olish konstruktorlari va argumentlari. Kiritish va chiqarish operatorlarini qayta yuklash. Kiritish va chiqarish universal funksiyalari. Formatli kiritish va chiqarish. Kiritish va chiqarish manipulyatorlari.

15- mavzu. Shablonlar bilan ishlash.

Shablon (template) tushunchasi va ularning qo'llanilishi. Funksiya shablonlarini, sinf shablonlarini yaratish usullari va ularning bog'liqlik tomonlari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Talaba amaliyot mashg'ulotlarida misol va masalalar yechadi. Amaliyot mashg'ulotlarda yechiladigan misol va masalalar quyidagi prinsiplarga asosan tanlanadi: tipik misol va masalalarni yechishga malaka hosil qildiruvchi, fanning mohiyatini anglatuvchi va mavzular orasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ma'lum miqdordagi misol va masalalar tanlanadi.

Amaliyot mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Algoritmlar, ularning xossalari va ifodalash usullari. Dasturlashga kirish. C++ dasturlash tilida dastur kompilyatsiyasi va kompilyator turlari. Identifikator va ularning turlari. Dasturlash tillarining tuzilmasi. Matematik kutubxona funksiyalari va ular yordamida chiziqli algoritmlarni tashkil qilish.
2. O'zgaruvchilarga qiymat kiritish va chiqarish operatorlari. printf(), scanf() funksiyalari.
3. Tarmoqlanuvchi operatorlar. Shartli o'tish operatori (if), tanlash operatori (switch).
4. Takrorlanuvchi operatorlar. Parametrli sikl operatori (for), old shart while va so'ng shart do while operatorlari.
5. Funksiyalar. Qiymat qaytaradigan va qiymat qaytarmaydigan funksiyalar. Funksiya prototiplardan foydalanib, parametrlarni qiymat va adresga binoan jo'natishga doir masalalar yechish.
6. Rekursiv funksiyalar. Rekursiv funksiyalarga doir masalalar yechish. Funksiyalarni qayta yuklash. Foydalanuvchi kutubxonasini tashkil qilish.
7. Massivlar. Bir o'lchovli massivlarni e'lon qilish va ularning elementlariga murojatlarni tashkil qilishga doir masalalar yechish.
8. Massivlar. Ko'p o'lchovli massivlarni e'lon qilish va ularning elementlariga murojatlarni tashkil qilishga doir masalalar yechish.
9. Ko'rsatkichlar va dinamik xotira bilan ishlash. Ko'rsatkichlar va dinamik xotira bilan ishlashga doir masalalar yechish.
10. Tuzilmalar va kengaytmalar. Ob'yektga yo'naltirilgan dasturlash asoslari. Sinf (class) yaratish usullari. Sinf a'zolariga murojaat usullari. Ob'yektlar yaratish va ulardan foydalanishga doir masalalar yechish.

11. Ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash asoslari sinfning funksiya a'zolarini yaratish va ularga murojat usullari va ulardan foydalanishga doir masalalar yechish. Sinf konstruktorini yaratish va ularga murojat usullari va ulardan foydalanishga doir masalalar yechish.
12. Friend funksiyalar. Friend funksiyalar yaratish va ulardan foydalanishga doir masalalar yechish.
13. Satrlar. Satrlarni ulash, solishtirish, belgilarni izlash, satr qismlarini izlash hamda ularni o'zgartirish va o'chirishga doir masalalar yechish.
14. String standart funksiyalari
15. Fayllar va fayllar bilan ishlash. Fayllar va oqimlar, diskdagi fayllar bilan ishlash.
16. Matnli fayllar. Binar fayllar. C++ tilida fayllar bilan ishlovchi maxsus funksiyalar. Istisno (exception) larni qayta ishlash (throw, try va catch).
17. Inkapsulyasiya. Sinf a'zolariga ruxsat (public, private va protected) larni va ularga murojat qilishga doir masalalar yechish.
18. Merosxo'rlik. Merosxo'rlik turlari (public, private va protected), o'zaro bog'langan sinflar ularga bog'langan sinflar va ularga murojat qilishga doir masalalar yechish.
19. Polimorfizm. Sinf funksiyalarini qayta yuklashga (Owerride) doir masalalar yechish. Virtual funksiyaga doir masalalar yechish. Abstrakt sinf va funksiyalar.
20. Operatorlarni qayta yuklash. Operatorlarni qayta yuklashga doir masalalar. Operatorlarni qayta yuklash. Amallarni qayta yuklashga doir masalalar yechish.
21. Shablonlar bilan ishlash. Funksiya shablon (template)larini yaratish usullari hamda ularga doir masalalar yechish.
22. Shablonlar bilan ishlash. Sinf shablon (template)larini yaratish usullari va ularga doir masalalar yechish..

Amaliyot mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar ma'ruza mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarini dasturlar tuzish bilan mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga individual, jamoa bo'lib va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darsliklar, o'quv qo'llanmalar va uslubiy qo'llanmalarning tarqatma va ko'rgazmali ashyolarning ahamiyati katta.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Dasturlash I fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va iqtisodiyot sohadagi amaliy masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va ma'ruzalarlar tayyorlash;
- berilgan vazifalar bo'yicha dasturlar tuzish;
- talabaning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni chuqur o'rganish;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Tarmoqlanuvchi jarayonlarni tashkil etish(Algoritm va dastur).

Takrorlanuvchi jarayonlarni tashkil etish(Algoritm va dastur).

Massivlarni tashkil etish.

	Matritsalarni tashkil etish. Vektorlarni tashkil etish. Ichma – ich joylashgan siklik jarayonlarini tashkil etish. Bir o'lchovli massivlarni funksiya parametrlari sifatida qo'llanilishi. Matritsalarni funksiya parametrlari sifatida qo'llanilishi. Vektorlarni funksiya parametrlari sifatida qo'llanilishi. Rekursiv jarayonlarni tashkil etish. Ichma ich joylashgan rekursiv jarayonlarni tashkil etish. Satrlar bilan ishlash. O'zaro bog'langan sinflarni tashkil etish. Abstrakt sinflar tashkil etish va ulardan foydalanish usullari. Konstruktorlar va ularni tashkil etish usullari. Fayllar bilan ishlashning yangi usullari(I/O texnologiyasi) Voris sinflar yaratish va ular yordamida masalalarni yechish Ob'ektlar massivi bilan ish yuritish. Dinamik massivla va ko'rsatkichlar. Sinflarni yaratishda funksiyalarni qayta yuklash mexanizmidan unumli foydalanish. Sinflarni yaratishda operatorlarni qayta yuklash mexanizmidan unumli foydalanish. Shablon funksiyalar yaratish va ulardan foydalanish. Shablon sinflar yaratish va ulardan foydalanish. Shablon funksiyadarda funksiyalarni qayta yuklash mexanizmi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar qilinadi.
3.	**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari** **Talabalar bilishi kerak:** – dasturlash tillarining qo'llanilish sohalarini; – dastur tuzilishi va alifbosini; – o'zgarmas va o'zgaruvchilar, ma'lumot tiplarini qo'llanilish usullarini; – matematik va mantiqiy amallarning qo'llanilish usullarini; – kiritish – chiqarish operatorlarini qo'llanilish usullarini; – tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlar uchun algoritmlar hamda dasturlar tuzishni; – funksiya va kutubxonalarni yaratishni hamda ulardan foydalanishni; – massivlar, belgilar va satrlar bilan ishlashni; – ma'lumotlarning statik tuzilmasi va dinamik tuzilmasi bilan ishlashni; – sinf. ob'ektga mo'ljallangan dasturlash imkoniyatlarini turli xil sohalarga qo'llash usullarni.

4.	**VI. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar** Talaba "Dasturlash I" fanini o'zlashtirishda ta'limning innovatsion usullaridan foydalanishi, yangi pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o'zlashtirishda o'quv-uslubiy ta'minot (darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, modul topshiriqlari)dan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda turli metod va vositalardan, xususan, aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o'yinlar, portfolio, keys-stadi, shuningdek, dasturlash tillarining kompilyatorlari (**Dev C++, CodeBlocks, Visual C++, MS Visual Studio, v.x.k**), internet tizimlaridan foydalanish mumkin.
5.	**VII. Kreditdarni olish uchun talabalar** Bakalavr "Dasturlash 1" fani bo'yicha: - dars jarayonida faol qatnashish - joriy nazorat vazifalarini o'z vaqtida, talabga javob beradigan tartibda topshirish (joriy nazorat topshiriqlari kridit modul tizimi orqali dars davomida baholanib boriladi) - oraliq nazoratlarda beriladigan nazariy va amaliy topshiriqlarni o'z vaqtida , talabga javob beradigan ko'rinishda bajarish (oraliq nazorat yozma ko'rinishida olinadi va kridit modul tizimda baholanadi) - yakuniy nazoratni qoniqarli bahoga topirishi lozim (yakuniy test ko'rinishida kridit modul tizimda topshiriladi)
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Mo'minov.B.B, Dasturlash 1(Darslik).-T."Nihol print" ok, 2021. 280 b. 2. Nazirov Sh.A., Qobulov R.V., Bobojanov M.R., Raxmanov Q.S. C va C++ tili. Voris- nashriyot" MChJ. Toshkent 2013, 488 b. 3. Horton I.-Beginning Visual C++ 2012/ I.Horton. Published simultaneously in Canada.–2016. –P. 988. 4. Ziborov V.V. MS Visual C++ 2016 в среде .NET (2012) Питер. 5. Bjarne Stroustrup. Programming: Principles and Practice Using C++ (2nd Edition). Person Education, Inc. 2014. second printing, January 2015. 6. J.Axmadaliev, R.Xoldorboev C++ dasturlash tilini o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma(2015). 7. Макурин Ю.Д, Сивохин А.В. Проектирование и реализация баз данных и клиентских приложений в среде MS Visual Studio.NET (2016). **Qo'shimcha adabiyotlar** 8. O'zbekiston Respublikasi Konstititsiyasi T.: O'zbekiston, 2017.-46. 9. Stiven S. Skiena, Migel A. Revilla. Олимпадные задачи ро программированию. 10. Knut D. Iskusstvo programmirovanie. Tom 1-4., SBP. Vilyams 2017. **Axborot manbalari** 11. https://robocontest.uz/– Dasturlash bo'yicha olimpiada masalalari 12. http://www.cplusplus.com/ 15.www.dastur.uz – dasturlash tillarini o'rgatuvchi veb sayt
7.	**Fan dasturi Muxammad al – Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

8.	**Fan/modul uchun ma'sullar:** Z.Sh.Abdullayeva – TATU, "Informatika asoslari" kafedrasi mudiri. S. M. Saidov – TATU, "Informatika asoslari" kafedrasi assistenti.
9.	**Taqrizchilar:** O.U.Mallayev – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Energiya ta'minlash tizimlari kafedrasi mudiri, dotsent. A.S.Matyakubov – O'zMU Amaliy matematika va kompyuter tahlili kafedrasi mudiri f.-m.f.d.,dotsent.

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

№607

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ prof. A.Soleev
"___" _____2019 yil

MA'LUMOTLAR BAZASI

FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI

(3-kurslar uchun)

Bilim sohasi: 100000 –Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 –Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5110700 – Informatika o'qitish metodikasi

Samarqand – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Abdullayev A.N. – SamDU «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Nazarov F. M, Inatov A.I, Jo'rayev J.O'- SamDU «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrasi assistentlari.

Taqrizchilar:

Urunbayev E. – SamDU, «Amaliy matematika va dasturiy kompleks» kafedrasi, dotsenti.

Qobilov S. - SamDU, «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrasi dotsenti

Ishchi o'quv dasturi «Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrasining 2019 yil « __ » avgustidagi __-sonli yig'ilishida muhokama qilindi va fakultet kengashida tasdiqlash uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri: **prof. I.Jumanov**

Ishchi o'quv dasturi SamDU "Amaliy matematika va informatika" fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil «___»_____ ___ sonli majlis bayonnmasi)

Fakultet uslubiy kengash raisi: Sh. Mamatov

Fakultet kengashi raisi: **Babayarov A.I.**

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i: **B.Aliqulov**

Kirish

Mazkur ishchi o'quv dasturi bakalavriat yo'nalishi: 5110700 – Informatika o'qitish metodikasi yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlari va unga qo'yiladigan talablar asosida tuzilgan bo'lib, bo'lajak fan o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi:

Ma'lumotlarning axborot modellari, axborotni strukturalash va tasvirlash muammosi, ma'lumotlarning tarmoqli, relyasion va ierarxik modellari, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, "klient – server" texnologiyasi va undan foydalanish, ma'lumotlar bazasi muhitida foydalanuvchilar dasturini yaratish, SQL tili operatorlari, sun'iy intellect sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari, bilimlarni tasvirlash modellari, ekspert tizimlarning dasturiy ta'minoti klassifikatsiyasi, bilimlar bazasining faktlari va qoidalari ko'rinishida predmet sohasi bo'yicha bilimlarni tasvirlash, dasturda ma'lumotlar rekursiyasi va tuzilmalari, funksional dasturlash bilishi va ulardan foydalana olishi.

Fanning maqsad va vazifalari

«Ma'lumotlar bazasi" fanini o'qitishdan maqsad - informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari haqida tushunchalar: ma'lumotlar bazasi turlari, ularni bashkil etish, tahrirlash, ish joylarni avtomatlashtirishda undan foydalanish, jadvaldan ma'lumotlarni tanlashda SQLdan foydalanish, SQL – so'rovlar yaratish, SQL server va undan foydalanish, "klient – server " texnologiyasi borasidagi bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va makalalarni shaklantirish va rivojlantirishdan iborat.

Ma'lumotlar bazasi fanining vazifasi:

- Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi haqida bir butun tasavvur hosil qilish;
- MBBTning har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi rolini ochib berish;
- MBBTning mohiyati va imkoniyatlarining ochib berish;
- MBBT va SQL tilini nima maqsadda va qanday qo'llash haqida tushuncha hosil qilish.
- bilimlar bazasi, sun'iy intellekt, bilimlar tizimi, ekspert sistemalari haqidagi tasavurlarini kengaytirish
- ekspert sistemalarning dasturiy ta'minoti o'rgatish;
- mantiqiy dasturlash haqidagi dunyoqarashini kengaytirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar

«Ma'lumotlar bazasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

Ma'lumotlar bazasi va ularni boshqarish tizimlari haqida tushunchalar: ma'lumotlar bazasi va ularning turlari, MBni boshqarish tizimlarini, MBBT Access dasturining imkoniyatlarini, MB bilan ishlashda SQL tilidan foydalanishni, "klient – server " texnologiyasini **bilishlari kerak**;

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi Access dasturi bilan ishlash, Access asosiy ob'ektlarini tashkil etish va ulardan MBni boshqarishda foydalanish, MB bilan ishlashda SQL tilidan foydalanish **ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak**;

Access dasturidan, SQL tili imkoniyatlaridan, "klient – server " texnologiyasidan foydalanib MB tashkil etish, tahrirlash, ulardan zaruriyatga ko'ra yangi so'rovlar, hisobotlar tashkil etish, bilimlar bazasi, sun'iy intellekt, bilimlar tizimi, ekspert sistemalari, ekspert sistemalari turlari, ekspert sistemalarning dasturiy ta'minoti, intellektual ma'lumotli ekspert sistemalar, mantiqiy dasturlash, dasturda ma'lumotlar rekursiyasi, funksional dasturlash haqidagi bilim, ko'nikma va **malakalariga ega bo'lishlari kerak**.

O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Ma'lumotlar bazasi fani asosiy kasbiy fanlaridan biri hisoblananib, 5, 6 va 7 - semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi rejalashtirilgan informatika, algoritmlash va

dasturlash tillari, kompyuterning zamonaviy va texnik dasturiy ta’minoti fanlaridan olingan nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi.

Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning fanni muvafaqiyatli o’zlashtirishi uchun o’qitishning ilg’or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyani tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o’zlashtirishda darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, maruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, plakatlardan foydalaniladi.

Maruza va amaliy mashg’ulotlarda mos ravishda ilg’or pedagogik va kompyuter texnologiyalardan foydalaniladi.

O’quv jarayonida fanni o’tish sifatini belgilovchi quyidagi holatlar etiborga olinadi: yuqori ilmiy darajada dars berish, muammoli maruzalar o’qish, darslarni savol-javob tarzda qiziqarli tashkil qilish, ilg’or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o’ylantiradigan muammolarni ular oldiga quyish, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

«Ma’lumotlar bazasi» kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo’naltirilgan talim. Bunda kelgusidagi mutaxassis faoliyati bilan bog’liq o’qitish, masalalar, mavzular ishchi dasturda ko’rilishi kerakligi nazarda tutilgan.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o’zida mujassam etmog’i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo’g’inlarini o’zaro bog’langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo’naltirilgan yondoshuv. Mazkur dasturda kelgusidagi mutaxassis sifatlarini shakllantirish, aktivlashtirish va uning barcha qobiliyati va tashabbuskorligini ochishga etibor berilgan.

Dialogik yondoshuv. Fanning amaliyot darslarida shaxsning o’z-o’zini faollashtirish, o’zini ko’rsata olish kabi ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Xamkorlikdagi ta’limni tashkil qilish. Talabalarning quyilgan masala yechimlarini olishda birgalikdagi ishlashni joriy etish zarurligi etiborga olingan.

Muammoli ta’lim. Talim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish uchun fan dasturi bilan bog’liq qiziqarli mavzular muhokama qilinishligi, bunda ilmiy bilimning obektiv qarama-qarshiligi, uni hal etish usullari, amaliy faoliyatga ularni qo’llash masalalarni muhokama qilish ko’zda tutilgan.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo’llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarni o’quv jarayoniga qo’llash.

O’qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O’qitishni tashkil etish shakllari. Dialog, muloqot, xamkorlik, o’zaro o’rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O’qitish vositalari. Darslik, maruza matni, elektron kitob, elektron o’quv qo’llanmalar, elektron o’yinlar va shu bilan bir qatorda kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari. Tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asolangan bevosita o’zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so’rov, oraliq, joriy, yakuniy nazorat tahlili.

Boshqarish usullari va vositalari: o’quv mashg’uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko’rinishidagi o’quv mashg’ulotlarini rejalashtirish, quyilgan maqsadga

erishishda o’qituvchi va tinglovchining birgalikdagi xarakati, auditoriya mashg’ulotlari va mustaqil ishlar nazorati.

Monitoring va baholash. Kurs ohirida test topshiriqlari yoki yozma ish varinatlari bo’yicha talabalar bilimlari baholanadi.

Ayrim mavzular bo’yicha talabalar bilim baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. Internet tarmog’idagi rasmiy iqtisodiy ko’rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, tayanch so’z va iboralar asosida oraliq va yakuniy baholashlar o’tkaziladi.

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma’ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo’yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalar to’la qamrab olinishi kerak. Asosiy qism sifatiga qo’yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo’layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o’zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so’ngi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Ma’ruza mashg’ulotlari

Microsoft Access haqida umumiy tushunchalar. Ma’lumotlar bazasi strukturasi va ularni ishlab chiqish. Kalitli maydonlar va aloqalar.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Ma’ruza, namoyish etish, savol-javob, Charxpalak, metodlari.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5.

Microsoft Accessda javdallarni ishlab chiqish. Ma’lumotlarni berish va aks ettirish. Jadvallarni yaratish uslublari.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, namoyish etish, guruhlarda ishlash metodi.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5.

4. Raspberry Pi turidagi mikorkompyuterlarni dasturlash asoslari.
5. Analog va raqamli signallarni qayta ishlash.
6. Analog va raqamli datchiklarni ulash
7. Harorat datchiklari
8. Analog raqamli signallarni uzatish va qayta ishlash
9. Yorug'lik diodlarni mikrokontrollerga ulash
10. Mikrokontrollerli o'quv loyihalarni yig'ish
11. Tugmalar va ularning turlari
12. Avtomatlashgan bino prototipini dasturlash
13. Datchik ma'lumotlarni qayta ishlash
14. Yoritish va shamollatish tizimlarni boshqarish
15. "Aqlli uy " avtomatlashgan loyixalarni ishlab chiqish
16. Robototexnik manipulyatorlarni yig'ish
17. Displey qurilmasi
18. To'liq o'tkazgichli robotlarni yig'ish
19. Qadam bosadigan robotlarni yig'ish

	20.Android robotlarni yig'ish 21.Android robotlarni dasturlash *Izoh:* Mustaqil ta'lim soatlari hajmlaridan kelib chiqqan holda ishchi dasturda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, fan bo'yicha talaba dunyoqarashini kengaytiradigan mustaqil ta'lim mavzulari shakllantiriladi.
3.	**V. Fanni o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).** **Fanni o'zlashtirish natijasida talabalar:** • "Intellektual tizimlar va robototexnika" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr talabalar: Arduino tushunchasi, ma'lumotlar bazasini shaklantirish usullari, Robot uchun mavjud datchilar bilan ishlashni va ular ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;*** • robotlarning tuzilishini o'rganish, robotning dasturiy ta'minotini o'rganish va ularni yaratish, mikrokontrollerlarni o'rganish, sanoat robotlarning asosiy xususiyatlari, yuqori texnologik loyixalarni o'rganish, display qurilmasi, tasvirlarni aks ettirish, avtomatlashgan bino prototipini yig'ish kabi ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** • robotlarning oddiy mexanik modellarni yig'ish, algoritmlar, berilgan trayektoriya bo'ylab harakat, to'liq o'tkazgichli robotlarni yig'ish, to'liq o'tkazgichli robotlarni dasturlash, ultratovushli datchikka ega robotlarni o'rganish, robot platformasini yig'ish, robot kuzatuvini yig'ish, masofadan boshqariladigan avtonom robotlar, atrof –muhit parametrlarini o'lchaydigan datchiklar bilan ishlash, dvigatellarni boshqaradigan signallarni kuzatish, yorug'lik sensori, ikki yorug'lik sezgichi bilan chiziqli harakat, mikrokontroller asosida robot-o'qituvchini dasturlashdan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish

6.	**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari** **Asosiy adabiyotlar:** 1. Turayeva Sh. N. Robototexnika asoslari. O'quv qo'llanma. Nashriyot: TDPU.2024 y.132 bet. https://unilibrary.uz/literature/765600 2. Karimov B. X.Robototexnika asoslari fanidan laboratoriya mashg'uloti. O'quv qo'llanma. Nashriyot:Farg'ona. 2025 y.173 bet. https://unilibrary.uz/literature/764791 3. Sheraliyev Sh. E. Robototexnika asoslari. Darslik. Nashriyot: TDPU. 2025 y. 191-bet. https://unilibrary.uz/literature/765595. 4. X.Xudoynazarov.Robototexnikaga kirish. O'quv-uslubiy ko'rsatma. Nashriyot: Samarqand. 2021-y. 48-bet. https://unilibrary.uz/literature/714221 5. Bo'ronova G.Yo. Robototexnika. O'quv qo'llanma. Nashriyot:Toshkent. 2022. 141- bet. https://unilibrary.uz/literature/681047 **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. X.T.Raxmonov, O.T.Yuldashev.Mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va robototexnika asoslari.O'quv qo'llanma.2022 y.166-bet https://unilibrary.uz/literature/656830 2. Alimova N.B, B.B.Yusupov.Elektronika va robototexnikaning elektron elementlari. O'quv qo'llanma. Nashriyot: Toshkent, Nurafshon business. 2024-y.304-bet. https://unilibrary.uz/literature/553863 3. Gofurjanova N.K. Robototexnika asoslari.Majmua. 2023 y. 149-bet. https://unilibrary.uz/literature/448693 4. Maksudov R, Otajonov S, Shuxratov Sh, Rahmonqulov M. Mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va robototexnika asoslari.O'quv qo'llanma.Nashriyot: Farg'ona davlat universiteti. 2020 y. 169-bet. https://unilibrary.uz/literature/129433 5. G.Yo.Bo`ronova. Virtual ta'lim platformasi asosida robototexnika to'garagi faoliyatini takomilashtirish metodikasi. Phd Avtoreferat.Nashriyot: Buxoro davlat universiteti. 2023 y. 52-bet. https://unilibrary.uz/dissertation/407340
7.	Faning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy dasturi asosida va 60610500-Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishining malaka talablari hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining 2025-yil ___-_____dagi ____-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

8.	**Fan / modul uchun mas'ullar:** E.I.Saidaxmedov – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** R.Ya.Mamajanov –DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri t.f.n.dots. O.Allanov-Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Kiberxavfsizlik va kriminalistika" kafedrasi mudiri PhD.dots.

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	TOP-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	TOP-300 (QS/THE) dagi o'rni	Sayt manzili, linki
1	Stanford University (Europe)	3/3	https://see.stanford.edu/Course/CS223A
2	University of Birmingham (Europe)	80/84	https://www.birmingham.ac.uk/study/postgraduate/subjects/mechanical-engineering-courses/robotics-msc
3	University of Illinois (Europe)	80/80	https://publish.illinois.edu/ece470-intro-robotics/syllabus-spring-2025-2/?utm_source=chatgpt.com

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti rektori
_____ O.A.Ruziyev
2025-yil "__" _____

Ro‘yxatga olindi
№ 373.2.02.2025
2025 yil "26" 06.

t/f. 3D grafika va animatsiya
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 –	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610 000 –	Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610500 -	Kompyuter injiniringi

Denov – 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi MTP52806	O'quv yili 2025-2026	Semestr VIII	Kreditlar 4
Fan/Modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari VIII-semestr 4 soat

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	u/f. 3D grafika va animatsiya	30/30=60	60	120

2. I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad - Talabalarni uch o'lchamli grafika va animatsiya asoslari bilan tanishtirish, ularni 3D modellashtirish, sahna tashkil etish, yoritish, material va teksturalar bilan ishlash, animatsiya yaratish hamda rendering jarayonlarini mustaqil bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashdir, ularni real hayotdagi masalalarni yechishda qo'llay olish darajasiga yetkazish.

Fanning vazifasi - talabalarga 2D va 3D grafikalar farqi, 3D koordinata tizimi, modellashtirish asoslari bilan tanishtirish. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish – 3D modellarni yaratish, tahrirlash, material va tekstura qo'llash, yoritish va kamera bilan ishlashni o'rgatish. Animatsiya jarayonlari – keyframe, path animation, rigging kabi animatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasini berish. Dizayn va ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash – talabalarni san'at va texnologiyani uyg'unlashtirgan holda kreativ loyihalar yaratishga yo'naltirish. Texnik vositalardan samarali foydalanish – Blender, Autodesk 3ds Max, Maya kabi 3D grafik dasturlarini o'rgatish. Rendering va post-processing – vizual natijani yuqori sifatli ko'rinishda tayyorlash va uni taqdim etish ko'nikmasini shakllantirish. Jamoada ishlash va loyiha yuritish – talabalarda hamkorlikda ishlash, loyiha hujjatlarini tayyorlash va yakuniy natijani taqdim etish malakasini rivojlantirish. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish – 3D grafika va animatsiya sohasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarni kasbiy faoliyatda qo'llash imkonini yaratish. 3D grafikadan samarali foydalanish imkoniyatini yaratishdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II.I. Fanni tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: 3D grafika faniga kirish

Grafik turlari: 2D va 3D. 2D va 3D grafikalar orasidagi asosiy farqlar. 3D grafikadan foydalaniladigan sohalar (kino, o'yin, AR/VR, dizayn, ilmiy vizualizatsiya).

2-mavzu: 3D koordinata tizimi va interfeys

3D koordinata tizimi (X, Y, Z o'qlari). Blender va 3ds Max dasturlari haqida umumiy tushuncha. Ishchi interfeys elementlari (viewport, toolbar, properties, timeline).

3-mavzu: 3D ob'ektlar turlari

Primitive ob'ektlar (cube, sphere, cylinder). Mesh tushunchasi va ishlash prinsipi. Spline va NURBS modellashtirish asoslari.

4-mavzu: Transformatsiyalar

Ob'ektlarni harakatlantirish (Move/Translate). Ob'ektlarni aylantirish (Rotate). Ob'ektlarni masshtablash (Scale). Transformatsiyalar kombinatsiyasi.

5-mavzu: Poligonal modellashtirish asoslari

Vertex (nuqta), Edge (chiziq), Face (yuz) tushunchalari. Mesh tuzilmasi va topologiya asoslari. Poligon sonining ahamiyati.

6-mavzu: Ob'ektlarni tahrirlash

Extrude yordamida shakl yaratish. Loop cut va subdivide yordamida qo'shimcha bo'linishlar. Bevel yordamida qirralarni yumshatish.

7-mavzu: Material va ranglar

Material tushunchasi va material editor. Rangi va yuzaga beriladigan effektlar (diffuse, specular, transparency). Bir ob'ektga bir nechta material berish.

8-mavzu: Teksturalash

. Tekstura nima va uning roli. UV mapping tushunchasi. Oddiy ob'ektlarga tekstura qo'llash.

9-mavzu: Yorug'lik va yoritish tizimlari

.3D sahnada yorug'lik turlari (point, sun, spot). HDRI yoritish usuli. Yorug'lik manbalarining vizual ta'siri.

10-mavzu: Kamera bilan ishlash

. Kamera joylashtirish va sozlash. Ob'ektni turli rakurslardan ko'rish. Kadr kompozitsiyasi (rule of thirds, leading lines).

11-mavzu: Oddiy animatsiya

Animatsiya tushunchasi va turlari. Keyframe qo'yish prinsipi. Oddiy ob'ekt animatsiyasi (masalan, to'pning sakrashi).

12-mavzu: Ob'ekt harakat yo'li bo'yicha animatsiya

. Path (yo'l) yaratish. Ob'ektni yo'l bo'yicha harakatlantirish. Kamera path animation.

13-mavzu: Skeletli animatsiya (Rigging)

Skelet (armature) tushunchasi. Ob'ektni skeletga bog'lash (skinning). Oddiy skelet animatsiyasi.

14-mavzu: Rendering asoslari

Rendering nima?. Eevee render engine xususiyatlari. Cycles render engine xususiyatlari. Real-time va fizik render farqlari.

15-mavzu: Post-processing va yakuniy loyiha

.Render qilingan sahnani post-processing. Rangni to'g'rilash (color grading). Effektlar qo'shish (bloom, glare, depth of field). Yakuniy loyiha taqdimoti.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Blender/3ds Max ishchi muhiti bilan tanishish.
2. Oddiy geometrik shakllar (cube, sphere, cone) yasash.
3. Ob'ektlarni joylashtirish va aylantirish mashqlari.

CamScanner yordamida skanerlangan

4. Stul yoki stol kabi oddiy model yasash.
5. Mesh tahrirlash: devor yoki deraza modeli.
6. Extrude va bevel yordamida 3D uy shakllantirish.
7. Material qo'llash: metall, yog'och, plastmassa.
8. Tekstura joylash: oddiy rasmlarni UV mapping orqali qo'yish.
9. Yorug'lik qo'yish: 3 nuqtali yoritish (Key, Fill, Rim).
10. Kamera joylashuvi: sahnani turli burchaklardan olish.
11. Oddiy sakraydigan to'p animatsiyasi.
12. Mashina yoki samolyot modelini yo'l bo'yicha harakatlantirish.
13. Skelet qo'shish: qo'l yoki oyoq animatsiyasi.
14. Render olish: surat va qisqa video olish.
15. Yakuniy loyiha: kichik sahna va qisqa animatsiya yaratish (masalan, harakatlanayotgan mashina yoki o'ynayotgan to'p).

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Uyga berilgan vazifalarnga tayyorgarlik ko'rish.
2. 3D grafikada oddiy animatsiya 20 turdagi loyihalar yaratish.
3. 3D grafikada uy loyihasini qilish.
4. 3D grafika dasturlarining imkoniyatlari va turlari
5. Kamera joylashuvi bo'yicha mustaqil loyiha – turli rakurslardan suratga olish va kadr kompozitsiyasini ko'rsatish.

3. **V. Fanni o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).**

Fanni o'zlashtirish natijasida talablar:

Bilim kompetensiyalari - 2D va 3D grafika tushunchalarini, ularning qo'llanish sohalarini biladi. 3D koordinata tizimi, interfeys va grafik muhiti (Blender, 3ds Max) haqida nazariy bilimlarga ega bo'ladi. Poligonal modellashtirish, spline va NURBS modellashtirish asoslarini tushunadi. Transformatsiyalar (joylashtirish, masshtablash, aylantirish) va ularning matematik asoslarini biladi. Material, tekstura, UV mapping va yorug'lik tizimlarining ishlash tamoyillarini o'zlashtiradi. Kamera joylashuvi va kadr kompozitsiyasi qoidalarini nazariy jihatdan biladi. Animatsiya jarayonlari – keyframe, path animation, rigging va rendering usullarini nazariy jihatdan biladi.. **Amaliy ko'nikmalar** Blender/3ds Max dasturida ob'ektlarni yaratish va tahrirlashni bajaradi. Vertex, edge va face asosida poligonal modellar yasaydi. Extrude, loop cut, bevel kabi amaliy texnikalarni qo'llaydi. Material yaratadi, tekstura joylashtiradi va UV mappingni amalga oshiradi. Yorug'lik manbalarini o'rnatadi va sahna yoritishini to'g'ri sozlay oladi. Kamera burchagini sozlaydi va kadr kompozitsiyasini tanlay oladi. Keyframe yordamida animatsiya yaratadi. Path animation va rigging texnikalarini qo'llaydi. Eevee va Cycles dvijoklarida rendering qiladi. Render qilingan natijalarga rang korreksiyasi va effektlar qo'shadi. Mustaqil 3D model va animatsiya loyihalarini ishlab chiqadi va taqdim etadi. **Kommunikativ kompetensiyalar** 3D garfik tayyorlay oladi va natijalarni taqdim eta oladi. Guruhda ishlash, o'z fikrini texnik dalillar bilan asoslash va loyihani himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- guruhlarda ishlash;
- Interfaol metodlar;
- taqdimotlar qilish;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.

6. **Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari**

Asosiy adabiyotlar:

1. Christopher Kuhn "Blender 3D Incredible Machines" 2022 https://unilibrary.uz/my-publication/literature/783802
2. Jaime Kelley, *3D Character Rigging in Blender*, Packt, 2024 https://unilibrary.uz/my-publication/literature/783933
3. Yuliya Korbut, Azovsev Yuriy "Blender Basics Учебное пособие" 2024. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/783963
4. S.S.Saydaliyev "Kompyuterda loyihalash" o'quv qo'llanma Fan texnologiya 2019. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/783995
5. N.N.Zaripov "Kompyuter Grafikasi" o'quv qo'llanma Buxoro-2020. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/782019
6. A.Sh.Aminov "Muhandislik kompyuter grafikasi 3D modellashtirish" o'quv qo'llanma 2022 https://unilibrary.uz/literature/737638

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Andrey Praxov "Samouchitel Blender2.7" Sank-Peterburg 2016
2. Болсуновская М. В., Ракова В. В., Любченкова А. А. *Компьютерная графика: Blender 3D (учебное пособие)* – SPbPU, 2021.
3. Sam Brubaker *Realizing 3D Animation in Blender* – Packt, 2024.
4. John M. Blain *The Complete Guide to Blender Graphics: Computer Modeling & Animation* – CRC Press, 2021.
5. Oliver Villar *Learning Blender, A Hands-On Guide to Creating 3D Animated Characters* – Addison-Wesley, 2021.
6. Лебедев С. А. *Основы компьютерной графики и анимации* – Moskva,

CamScanner yordamida skanerlangan

2022.

7. Blender Foundation (tarjima) *Руководство пользователя Blender (онлайн документация)* – yangilangan 2023
8. Jason van Gumster *Blender For Dummies (4th Edition)* – Wiley, 2022.
9. Хохлов А. *3D моделирование и анимация в Blender* – Sankt-Peterburg, 2020.

Elektron ta'lim resurslari

1. https://www.google.com/
2. https://unilibrary.uz/
3. http://cs.oregonstate.edu/~mjb/blender
4. http://blender.org
5. http://blenderkit.com
6. http://www.blender.org/education-help/
7. http://www.blenderguru.com/
8. https://t.me/Blend3d
9. https://docs.blender.org/manual/en/latest/index.html

7. Faning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me`yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy dastur hamda 60610500- Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishining malaka talablari asosida ishlab chiqildi va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv-uslubiy Kengashining 202___-yil _____dagi __-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlandi.

8. **Fan / modul uchun mas'ullar:**
F.Z.Mengturayev – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi.

9. **Taqrizchilar:**
Sh.A.Mengliyev - Termiz davlat universiteti "Amaliy matematika va informatika" kafedrasi dotsenti
R.Mamajanov – DTPI "Axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	Top-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	Top-300 (QS THE, ARWU)dagi o'rni	Sayt manzili, linki
1	Stanford University	QS: 6, THE: 2, ARWU: 2	https://web.stanford.edu/class/cs148/lectures.html
2	Carnegie Mellon University	QS: 6, THE: 2, ARWU: 2	https://graphics.cs.cmu.edu/courses?utm_source
3	Massachusetts Institute of Technology (MIT)	QS: 1, THE: 3, ARWU: 4	https://dspace.mit.edu/bitstream/handle/1721.1/86191/6-837-fall-2003/contents/index.htm?utm_source
4	University of Washington	QS: 81, THE: 25, ARWU: 18	https://courses.cs.washington.edu/courses/cse457/25su/syllabus/?utm_source

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti rektori
_____ O.A.Ruziyev
2025-yil “___” _____

Ro‘yxatga olindi
№365.2.08.2025
2025 yil “26” 06

t/f. IT-loyihalarni boshqarish
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 –	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610 000 –	Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610500 -	Kompyuter injiniringi

Denov – 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi MTP62806	O'quv yili 2025-2026	Semestr VIII	Kreditlar 4
Fan/Modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari VIII-semestr 4 soat

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	t/f. IT-loyihalarini boshqarish	30/30=60	60	120

2. I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad - Talabalarni zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida loyihalarni rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va yakunlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bilan ta'minlashdir.

Fanning vazifasi - Zamonaviy axborot texnologiyalari sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sharoitda IT-loyihalarni samarali boshqarish har bir mutaxassis uchun muhim ko'nikma hisoblanadi. Shu bois "IT-loyihalarni boshqarish" fanining asosiy vazifasi talabalarni loyiha boshqaruvining nazariy va amaliy jihatlari bilan tanishtirish, ularda mustaqil fikrlash va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.
Fan doirasida talabalar loyiha hayotiy tsikli, rejalashtirish, byudjetlashtirish, risklarni tahlil qilish, sifatni ta'minlash va axborot xavfsizligi masalalarini o'rganadilar. Shuningdek, jamoa boshqaruvi, manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilish va zamonaviy metodologiyalar (Agile, Scrum, Kanban, Waterfall)dan foydalanish malakalarini egallaydilar. Mazkur fan nafaqat nazariy bilim berishni, balki talabalarni real amaliy loyihalarni boshqarishga tayyorlashni ham ko'zda tutadi. Natijada talabalar IT-loyihalarni samarali rejalashtirish, nazorat qilish va muvaffaqiyatli yakunlash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II.I. Fanni tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Kirish. IT-loyihalarning mohiyati va xususiyatlari

Loyiha tushunchasi. IT-loyihalarning o'ziga xos jihatlari. Loyiha va operatsion faoliyat farqi

2-mavzu: Loyiha hayotiy tsikli va bosqichlari

Boshlash, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va yakunlash. IT-loyihalarida hayotiy tsikl modellari.

3-mavzu: Loyiha menejmentining metodologiyalari

Loyiha menejmenti metodologiyalari tushunchasi. An'anaviy metodologiya. Moslashuvchan metodologiyalar. Xalqaro standartlar va modellari. Metodologiyalarni solishtirish

4-mavzu: Loyiha rejalashtirish

Maqsad va vazifalarni belgilash. Resurslarni hisoblash. Gantt diagrammasi

5-mavzu: Loyiha doirasi va hajmini boshqarish

Scope Management. Cheklovlarni belgilash.

6-mavzu: Vaqtni boshqarish

Ishlarni taqsimlash (WBS). Kritic path method (CPM). Loyihaning kalendar rejasi

7-mavzu: Moliyaviy boshqaruv va byudjetlashtirish

Loyiha xarajatlarini aniqlash. Byudjet rejalashtirish. ROI va loyiha samaradorligi

8-mavzu: Inson resurslarini boshqarish

Jamoa tuzilishi. Rollar va mas'uliyatlar. Liderlik va motivatsiya.

9-mavzu: Risklarni boshqarish

Risklarni aniqlash va baholash. Risklarni kamaytirish strategiyalari.

10-mavzu: Loyiha sifatini boshqarish

Sifat standartlari (ISO, CMMI). Testlash va verifikatsiya.

11-mavzu: Loyiha kommunikatsiyasini boshqarish

Aloqa vositalari. Stakeholder (manfaatdor tomonlar) bilan ishlash.

12-mavzu: IT-loyihalarda axborot xavfsizligi

Xavfsizlik talablari. Maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish.

13-mavzu: Loyiha monitoringi va nazorati

KPI va indikatorlar. Hisobotlar va nazorat vositalari.

14-mavzu: Loyihani yakunlash va natijani baholash

Yakuniy hisobot. Post-mortem tahlil.

15-mavzu: Case-study va amaliy loyiha

Real IT-loyihalardan misollar. Jamoaviy loyiha topshiriqlari

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. IT-loyihani aniqlash va taqqoslash
2. Loyiha hayotiy tsiklini tahlil qilish
3. Metodologiyalar taqqoslash
4. Loyiha rejasini tuzish
5. Cheklovlarni aniqlash va ro'yxat tuzish
6. Vaqtni boshqarish
7. Byudjetlashtirish
8. Jamoa tuzilishi
9. Risklarni boshqarish
10. Sifatni boshqarish
11. Loyihada aloqa vositalarini tanlash va jadval tuzish
12. Loyiha uchun xavfsizlik talablarini ishlab chiqish
13. Loyihaga oid nazorat jadvali tayyorlash
14. Yakuniy hisobot shablonini tayyorlash
15. loyiha taqdimoti

CamScanner yordamida skanerlangan

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Uyga berilgan vazifalarga tayyorgarlik ko'rish.
2. IT-loyihalarda metodologiyalarni taqqoslash.
3. Real IT-loyihalardan misol tahlili.
4. Loyiha byudjeti va samaradorligini hisoblash.
5. Sohaga oid loyiha yaratish.

3. **V. Fanni o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).**

Fanni o'zlashtirish natijasida talablar:

Bilim kompetensiyalari - "IT-loyihalarni boshqarish" fanini o'zlashtirgan talabalar loyiha boshqaruvi sohasida zaruriy nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Avvalo, ular IT-loyihalarning mohiyati va xususiyatlarini, ularning hayotiy tsikli hamda turli metodologiyalarini (Agile, Scrum, Waterfall va boshqalar) puxta o'zlashtiradilar. Bu esa ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlariga xizmat qiladi.

Talabalar loyiha rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, byudjetni shakllantirish, risklarni boshqarish va sifatni nazorat qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular jamoada ishlash, liderlik qilish, manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot o'rnatish va axborot xavfsizligini ta'minlash malakalarini rivojlantiradilar. Fan yakunida talabalar real hayotiy IT-loyihalarni tahlil qila olish, ularni rejalashtirish va muvaffaqiyatli boshqarish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo'ladilar. Natijada ular nafaqat texnik jihatdan, balki menejment va strategik boshqaruv sohasida ham yetuk mutaxassis sifatida shakllanadilar.

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- guruhlarda ishlash;
- interfaol metodlar;
- taqdimotlar qilish;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.

6. **Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari**

Asosiy adabiyotlar:

1. M.S.Qosimov. "Investitsiya loyihalar tahlili" darslik. Toshkent-2021. https://umlibrary.uz/my-publication/literature/784248
2. M.S.Qosimov. "Loyiha boshqaruvi" o'quv - qo'llanma. 2021. https://umlibrary.uz/my-publication/literature/784255
3. Seventh Edition. "THE STANDARD FOR PROJECT MANAGEMENT and A GUIDE TO THE PROJECT MANAGEMENT BODY OF KNOWLEDGE" 2021. https://umlibrary.uz/my-publication/literature/784263
4. Larson, E. W., & Gray, C. F. *Project Management: The Managerial Process*. 8th Edition. McGraw-Hill Education, 2020. https://umlibrary.uz/my-publication/literature/784264
5. Raxmanov I.M. Kompyuterda loyihalash. O'quv-uslubiy qo'llanma. T.: ToshDTU, 2021. https://umlibrary.uz/my-publication/literature/784271

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Qosimov M.S. *Loyiha boshqaruvi*. — Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021.
2. O'quv qo'llanma: Loyiha boshqaruvi. — Toshkent: moliya instituti, 2019.
3. ZiyoNET kutubxonasi: Loyiha boshqaruvi. — Toshkent, 2019.
4. Abdurahmonov Q.X. *Innovatsion loyihalarni boshqarish*. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020.
5. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'quv qo'llanmalari. *Axborot tizimlarida loyiha menejmenti*. — TATU, 2020.
6. Project Management Institute (PMI). *A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide)* – 7th Edition. — PMI, 2021.
7. Schwalbe, K. *Information Technology Project Management*. 10th Edition. — Cengage Learning, 2023.
8. Heldman, K. *PMP Project Management Professional Exam Study Guide – 10th Edition*. — Wiley, 2021.
9. Wysocki, R.K. *Effective Project Management: Traditional, Agile, Extreme, Hybrid, 9th Edition*. — Wiley, 2020.
10. Marchewka, J.T. *Information Technology Project Management, 5th Edition*. — Wiley, 2020.

Elektron ta'lim resurslari

1. https://www.google.com/
2. https://umlibrary.uz/
3. https://ziyonet.uz/
4. http://elib.tuit.uz/
5. https://kitob.uz/
6. https://www.coursera.org/browse/business/project-management
7. https://www.edx.org/learn/project-management

7. Fanning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy dastur hamda 60610500- Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishining malaka talablari asosida ishlab chiqildi va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv-uslubiy Kengashining 202[illegible]-yil [illegible]dagi [illegible]-sonli yig'ilish bayoni bilan

CamScanner yordamida skanerlangan

	tasdiqlandi.
8.	**Fan / modul uchun mas'ullar:** F.Z.Mengturayev – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** Sh.A.Mengliyev - Termiz davlat universiteti "Amaliy matematika va informatika" kafedrasi dotsenti R.Mamajanov – DTPI "Axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	Top-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	Top-300 (QS THE, ARWU)dagi o'rni	Sayt manzili, linki
1	York University (Kanada)	QS: 169, THE: 184, ARWU: 140	https://studylib.net/doc/27026960/fa23-itec-3506--course-outline---ali-sher?utm_source
2	Thompson Rivers University (Kanada)	QS: 55, THE: 64,	https://www.tru.ca/__shared/assets/mist_463032209.pdf?utm_source
3	Tiffin University (AQSh)	QS: 141, THE: 205	https://www.tuoninesources.com/syllabi/undergraduate/CST412_Syllabus.pdf?utm_source

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti o‘quv ishlar bo‘yicha
prorektori _____ U.X.Bo‘tayev
2025-yil “___” _____

Ro‘yxatga olindi
№ 3085.1.16.2025
2025 yil “06” 06

t/f. t.f. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 –	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610 000 –	Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610500 -	Kompyuter injiniringi

Denov – 2025

Fan/modul kodi MTP62806	O'quv yili 2025-2026	Semestr VIII	Kreditlar 4
Fan/Modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari VIII-semestr 4 soat

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	t/f. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt	60	60	120

2. **I. Fanning mazmuni.**

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning nazariy asoslarini o'rgatish, zamonaviy IT vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlashga tayyorlash.

Fanning vazifasi - Mazkur fanning asosiy maqsadi talabalarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasiga oid fundamental nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Fan doirasida talabalar raqamli transformatsiya jarayonlari, axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, algoritmlash asoslari, mashinali o'qitish va sun'iy intellekt texnologiyalarining ishlash tamoyillari bilan tanishadilar. Shuningdek, ular raqamli muhitda ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish bo'yicha boshlang'ich bilimlarga ega bo'ladilar.

Fanning yana bir muhim maqsadi — talabalarni raqamli iqtisodiyot sharoitida kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash, ularning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammolarni zamonaviy IT yechimlar orqali hal etish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Bundan tashqari, fan orqali talabalarda axborot xavfsizligi madaniyati, raqamli etik me'yorlarga rioya qilish, sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish, jamoada ishlash va mustaqil o'rganish kompetensiyalari ham rivojlantiriladi.

Natijada, talaba zamonaviy raqamli texnologiyalarni tushunadigan, ularni amaliyotda qo'llay oladigan va innovatsion jarayonlarda faol ishtirok eta oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II.1. Fanni tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. Raqamli texnologiyalar asoslari

Raqamli dunyoning "tanasi" bilan tanishish.

- Kompyuter arxitekturasi: Protsessor (CPU), xotira (RAM/ROM) va ona plata qanday ishlaydi?
- Ma'lumotlarni saqlash: HDD, SSD va bulutli xotira texnologiyalari.
- Kirish va chiqish qurilmalari: Sensorlardan tortib monitorlargacha.

2. Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi

Axborot tizimlari (AT) va Ma'lumotlar bazasi (MB) raqamli dunyoning "miyasi" va "xotirasi" hisoblanadi. Agar biz texnologiyani inson tanasiga o'xshatsak, tizim — bu jarayonlarni boshqaruvchi asab tizimi, baza esa barcha bilimlarni saqlaydigan xotiradir.

3. Internet va bulutli texnologiyalar

Internet va bulutli texnologiyalar — bu zamonaviy raqamli dunyoning "asab tizimi" va "global ombori"dir. Ular bizga ma'lumotlarni istalgan joyda, istalgan qurilmada va istalgan vaqtda ishlatish imkonini beradi.

4. Algoritm va dasturlash asoslari

Algoritm va dasturlash — bu muammolarni kompyuter tushunadigan tilda hal qilish san'atidir. Agar algoritm — bu ishni bajarish uchun "yo'riqnoma" bo'lsa, dasturlash — shu yo'riqnomani kompyuterga yetkazish vositasidir.

5. Ma'lumotlar va ularni qayta ishlash

Ma'lumotlar — bu raqamli dunyoning "xomashyosi". Ularni shunchaki to'plash kifoya emas, balki foydali xulosalar chiqarish uchun ularni qayta ishlash kerak. Bu jarayonni xuddi neftni qazib olib, undan benzin yoki plastmassa ishlab chiqarishga o'xshatish mumkin.

6. Sun'iy intellekt tushunchasi

Sun'iy intellekt (SI) — bu inson ongiga xos bo'lgan funksiyalarni (o'rganish, mantiqiy fikrlash, xatolardan xulosa chiqarish va ijod qilish) bajarishga qodir bo'lgan kompyuter tizimidir. Oddiy qilib aytganda, bu mashinaning "fikrlashga" taqlid qilishi.

7. Mashinali o'qitish (Machine Learning) asoslari

Mashinali o'qitish (Machine Learning — ML) — bu sun'iy intellektning bir qismi bo'lib, uning asosiy g'oyasi kompyuterga aniq ko'rsatmalar berish emas, balki ma'lumotlar asosida o'z-o'zini o'rgatish imkoniyatini berishdir.

8. Sun'iy neyron tarmoqlar

Sun'iy neyron tarmoqlar (SNT) — bu inson miyasining biologik neyronlari ishlash prinsipiga taqlid qilib yaratilgan matematik modeldir. Ular murakkab ma'lumotlarni, masalan, inson yuzi, ovozi yoki matnlar ma'nosini tushunishda eng samarali vosita hisoblanadi.

9. Kompyuter ko'rishi (Computer Vision)

Kompyuter ko'rishi (Computer Vision — CV) — bu sun'iy intellektning bir sohasi bo'lib, u kompyuterlarga raqamli tasvirlar (rasmlar va videolar)dan mazmunli ma'lumotlarni "ko'rish" va tushunish imkonini beradi.

10. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)

Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) — bu sun'iy intellektning kompyuterlarga inson tilini (matn va nutqni) tushunish, talqin qilish va yaratish imkonini beruvchi sohasidir.

NLP inson tillarining murakkabligi (grammatika, jargonlar, kinoya) va kompyuterlarning aniq mantiqiy dunyosi o'rtasidagi ko'prikdir.

11. Robototexnika va avtomatlashtirish

Robototexnika va avtomatlashtirish — bu sun'iy intellekt, mexanika va elektronikaning birlashgan nuqtasidir. Agar sun'iy intellektni "miya" desak, robototexnika — bu o'sha miyaning jismoniy dunyoda harakat qiluvchi "tanasi"dir.

12. Katta ma'lumotlar (Big Data)

Katta ma'lumotlar (Big Data) — bu an'anaviy ma'lumotlar bazasi va dasturiy ta'minotlar yordamida qayta ishlab bo'lmaydigan darajada ulkan hajmdagi, o'ta tezkor va xilma-xil ma'lumotlar to'plamidir.

13. Kiberxavfsizlik asoslari

Kiberxavfsizlik — bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar, dasturlar va ma'lumotlarni raqamli hujumlardan himoya qilish amaliyotidir. Raqamli dunyoda kiberxavfsizlik xuddi uyingizning eshigiga qulof osish yoki qimmatbaho buyumlaringizni seyfda saqlash bilan tengdir.

14. Raqamli iqtisodiyot va platformalar

Raqamli iqtisodiyot — bu xo'jalik yuritishning shunday shakliki, unda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdoning asosiy omili raqamli ma'lumotlar hisoblanadi. Bu iqtisodiyotda an'anaviy bozorlar o'rnini raqamli platformalar egallaydi.

15. Sun'iy intellektning etik muammolari

Sun'iy intellekt (SI) rivojlanishi insoniyatga ulkan imkoniyatlar yaratish bilan birga, jiddiy axloqiy va huquqiy savollarni ham keltirib chiqarmoqda. SI tizimlari hayotimizning muhim qismlariga (tibbiyot, sud, moliya) kirib borar ekan, ularning "adolatli" va "xavfsiz" ekanligi asosiy masalaga aylandi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Kompyuterda raqamli va analog qurilmalarni farqlash jadvali tuzish.
2. Oddiy ma'lumotlar bazasi loyihasini chizish (talabalar ro'yxati).
3. Google Drive yoki boshqa bulutli xizmatdan foydalanish.
4. Oddiy algoritm tuzish (masalan: sonning juft yoki toqligini aniqlash).
5. Excelda ma'lumotlarni saralash va filtr qilish.
6. Sun'iy intellekt qo'llaniladigan 5 ta sohani tahlil qilish.
7. Oddiy mashinali o'qitish misolini ko'rib chiqish (tayyor platformada).
8. Oddiy neyron tarmoq modeli sxemasini chizish.
9. Rasmni aniqlovchi AI servisni sinab ko'rish va natijasini yozish.
10. Chatbot platformasida oddiy bot yaratish.
11. Aqlli qurilmalar ro'yxatini tuzish (IoT misollar).
12. Katta ma'lumotlar haqida prezentatsiya tayyorlash.
13. Kuchli parol yaratish va xavfsizlik qoidalarini yozish.
14. Onlayn do'kon ishlash jarayonini sxema ko'rinishida chizish.
15. Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari haqida esse yozish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Uyga berilgan vazifalarnga tayyorgarlik ko'rish.
2. Sun'iy intellektning kundalik hayotdagi qo'llanilishi.
3. Raqamli transformatsiya va uning jamiyat rivojiga ta'siri.
4. Mashinali o'qitish va uning asosiy turlari.
5. Kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.

3. V.Fanni o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).

Fanni o'zlashtirish natijasida talablar:

Nazariy-metodologik kompetensiyalar - Bu bosqichda o'rganuvchi raqamli dunyoning "xaritasi"ni tushunish qobiliyatiga ega bo'ladi:

- Tizimli fikrlash: Raqamli texnologiyalarning jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qila olish.
- Atamashunoslik: Sun'iy intellekt, Big Data, IoT va blokcheyn kabi tushunchalarning mohiyatini va ular orasidagi farqlarni tushuntirib bera olish.
- Etik yondashuv: SI va raqamlashtirish bilan bog'liq axloqiy va huquqiy muammolarni (maxfiylik, kiberxavfsizlik, mas'uliyat) anglash.

Texnik va Instrumental kompetensiyalar - Bu — bevosita texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari:

- Ma'lumotlar bilan ishlash: Ma'lumotlar bazasini loyihalash va SQL so'rovlari orqali ma'lumotlarni boshqarish.
- Algoritmik savodxonlik: Muammolarni hal qilish uchun mantiqiy algoritmlar tuzish va kamida bitta dasturlash tilida (masalan, Python) boshlang'ich kod yozish.
- Bulutli texnologiyalar: Bulutli servislar (SaaS, PaaS, IaaS) yordamida ma'lumotlarni saqlash va tizimlarni boshqarish ko'nikmasi.

Fan yakunida talabalar muammoni hal qilish uchun qaysi raqamli texnologiya eng samaraligini, mavjud ma'lumotlar asosida qanday qilib SI modelini qurish yoki undan foydalanish mumkinligini, Yaratilgan tizimning xavfsizligi va etik jihatlari talabga javob beradimi yoki yo'qligini bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo'ladilar. Natijada ular nafaqat texnik jihatdan, balki menejment va strategik boshqaruv sohasida ham yetuk mutaxassis sifatida shakllanadilar.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- guruhlarda ishlash;
- Interfaol metodlar;
- taqdimotlar qilish;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.

6. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

	1. Stuart Russell & Peter Norvig. "Artificial Intelligence: A Modern Approach"darslik http://lib.ysu.am/disciplines_bk/efdd4d1d4c2087fe1cbe03d9ced67f34.pdf 2020 (4-nashr). 2. O'zbekistonlik mualliflar jamoasi. " Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" darslik 2022-2023 https://akbt.urdu.uz/uz/books/21834 3. G. D. S. Bhagat. "Digital Technologies in the 21st Century" darslik 2023. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/784263 4. M.M. Aripov, B.E. Ahmedov. "Raqamli texnologiyalar" darslik. 2021 https://library-tsul.uz/axborot-texnologiyalari-m-aripov-b-begalov-va-b-2009-2/ 5. R.B.Djuraeva. "Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar" O'quv qo'llanma. Toshkent-2022. **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Aurélien Géron. "Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow" qo'llanma. 2022(3-nashr) 2. Henry Kissinger, Eric Schmidt, Daniel Huttenlocher." The Age of AI: And Our Human Future", qo'llanma. 2021 3. ZiyoNET kutubxonasi: Loyiha boshqaruvi. — Toshkent, 2019. **Elektron ta'lim resurslari** 1. https://www.google.com/ 2. https://unilibrary.uz/ 3. https://ziyonet.uz 4. http://elib.tuit.uz 5. https://kitob.uz 6. https://www.coursera.org/browse/business/project-management 7. https://www.edx.org/learn/project-management
7.	Faning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy dastur hamda 60610500- Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishining malaka talablari asosida ishlab chiqildi va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv-uslubiy Kengashining 202___-yil _____dagi __-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlandi.
8.	**Fan / modul uchun mas'ullar:** S.Mamarasulov – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD). G.Doniyorova - DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi stajyor o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** I.M.Boynazarov - TATU Samarqand filali "Kompyuter injiniring" kafedrasi mudiri, t.f.n., professor. R.Mamajanov – DTPI "Axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	Top-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	Top-300 (QS THE, ARWU)dagi o'rni	Sayt manzili, linki
1	York University (Kanada)	QS: 169, THE: 184, ARWU: 140	https://studylib.net/doc/27026960/fa23-itec-3506--course-outline---ali-sher?utm_source
2	Thompson Rivers University (Kanada)	QS: 55, THE: 64,	https://www.tru.ca/__shared/assets/mist_463032209.pdf?utm_source
3	Tiffin University (AQSh)	QS: 141, THE: 205	https://www.tuoninеresources.com/syllabi/undergraduate/CST412_Syllabus.pdf?utm_source